

**Xo'jaobod tuman axborot-kutubxona
markazi axborot-bibliografiya xizmati**

**Alpomish dostoni yaratilganligining
(1644-1721) 1025 yilligi munosabati
bilan“Alpomish dostoni-o'zbek
xalqining madaniy merosidir”
mavzusida obzor**



Xo'jaobod 2024

Alpomish – o‘zbek xalqining ming yillar davomida yaratilgan qahramonlik dostoni. U xalqimiz orasida juda keng tarqalgan va asrlar davomida baxshilar tomonidan kuylab kelingan. “Alpomish” dostoni – butun o‘zbek xalqining ma’naviy mulkidir. Mustaqillik imkoniyatlaridan biri sifatida milliy iftixorimiz bo‘lgan “Alpomish” dostonining to‘la ravishda xalqimizga yetkazilishi madaniy taraqqiyotimizdagi ulkan voqeadir. “Alpomish” dostoni qon-qardosh turkiy xalqlar, shu jumladan, uning katta bir bo‘lagi – o‘zbeklar orasida qadim-qadim zamonlarda xalq donoligi-yu, baxshi-shoirilar zukkoligi, katta talant-iste’dodlari tufayli yaratilgan. Doston asrlar davomida avlod-ajdodlar, yoshlarning ma’naviyati, madaniyati, axloq-odobi, ulardagi Vatan, millat tuyg‘ularini o‘stirish, shuningdek do‘st-birodarlik, oriyat, mardlik, bahodirlik, pahlavonlik, qat’iyatlilik kabi fazilatlarni shakllantirish va kamolga yetkazishda muhim ehson, muhim tarbiya vositasi bo‘lib kelgan. “Alpomish” ota-bobolarimiz ijodiy dahosining bebaho badiiy yodgorligi, jahon xalqlari epik ijodiyoti namunalari ichida alohida o‘rin tutuvchi, mustaqil rivojlanishimiz davrida millat birligi va ma’naviy uyg‘onish, milliy g‘urur va o‘z-o‘zini anglash ramzidir.

«Alpomish» dostoni bundan ming yil ol-din turkiy xalqlarning qadim dostonchilik an’analari asosida xalq og‘zaki ijodi namunasi sifatida yaxlit doston shaklini olgan bo‘lsada, aslida «Alpomish» dostonining eng

qadimgi qatlamlari millodan avvalgi. yuz yilliklarda yurtimizda kechgan jarayonlarning badiiy talqinini o‘zida aks ettirgan.



Qo‘ng‘irot qabilasining turli hududlarga siljishi va ularning yangidan shakllanayotgan xalqlar tarkibiga kira borishi natijasida doston boshqa urug‘ va elatlarga ham o‘tib, ularning epik an‘analari asosida qayta ishlana borib, juda keng tarqaldi va nihoyat, uning yaratilishida otabobolari ishtirok etgan har bir xalqning o‘z eposiga aylandi.

“Alpomish” dostoni o‘zbek xalq og‘zaki ijodining noyob obidalaridan biri. Doston asrlar davomida og‘zaki tarzda avloddan avlodga o‘tib kelgan. Bu jarayonlarda, tabiiyki, u tarixiy sharoit tufayli turli o‘zgarishlarga uchragan. Dostonda o‘zbek xalqining milliy urf-odatlarini, turmush tarzi, odob-axloq mezonlari, oilaviy rasm-rusumlari, til-sheva xususiyatlari o‘z ifodasini topgan. “Alpomish”

dostoni shu tarzda og‘izdan og‘izga ko‘chib, asrlar oralab, XX asrning 20-yillarigacha yetib keldi

"Alpomish" dostoni badiiy barkamol asardir. U o‘zbek xalqining boy madaniniy merosi hisoblangan durdona asaridir.«Alpomish» variantlari 1922-y. dan yozib olinib boshlangan. Hozirgacha Fozil Yo‘ldosh o‘gli, Muhammadqul Jonmurod o‘g‘li Po‘lkan, Berdi baxshi, Saidmurod Panoh o‘g‘li, Bo‘ri baxshi, Bekmurod Jo‘raboy o‘g‘li, Mardonaqul Avliyoqul o‘g‘li, Abdulla Nurali o‘g‘li, Umir baxshi, Haydar Boycha o‘g‘li, Rahmatulla Yusuf o‘g‘li, Hodir Rahim o‘g‘li kabi o‘ttizdan ortiq dostonchilardan qirqqa yaqin variantlari yozib olingan.Doston qo‘ng‘irot urug‘i boshliqlari — aka-uka Boybo‘ri va Boysarining farzandsizligi tasviri bilan boshlanadi. Unda Alpomish, Barchin, Qaldirg‘ochlarning bir kunda tug‘ilishi, Barchin. Dostonning yetakchi obrazi Barchinning Alpomishga beshikkerti qilinishi, Boysarining Boybo‘ridan arazlab o‘n ming uyli elat bilan qalmoq eliga ko‘chishi, qahramonning yorini olib kelish uchun o‘zga mamlakatga safari, Qorajon bilan do‘st tutinib, Barchin shartlarini bajarishi va yorini olib o‘z yurtiga qaytishi, keyin yana yetti yil tutqunda qolishi, zindondan oti Boychibor yordamida qutulib, o‘z eliga umr yo‘ldoshi Barchinning zo‘ravon Ultontoz bilan bo‘layotgan majburiy to‘yi ustiga kelishi ham raqibini yengib, murod-maqсадiga erishishi voqealari juda

qiziqarli, eposga xos rang-barang badiiy bo‘yoqlarda tasvirlangan.



«Alpomish» dostoni qahramonlik, mardlik, vatanparvarlik, turli elatlar va xalqlarning birodarligi, sevgi va sadoqat, oila mustahkamligi va urug‘ birligini kuylovchi ulkan eposdir. Respublikamiz birinchi prezidenti Islom Karimov «Alpomish» dostonining 1000-yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda so‘zlagan nutqida aytganidek: «Alpomish» dostoni bizga insonparvarlik fazilatlaridan saboq beradi. Odil va haqgo‘y bo‘lishga, o‘z yurtimizni, oilamiz qo‘rg‘onini qo‘riqlashga, do‘stu yorimizni, or-nomusimizni otabobolarimizning muqaddas mozorlarini har qanday tajovuzdan himoya qilishga o‘rgatadi».


O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga (1998-yil 13 yanvar) hamda YUNESKO ning 1999-yildagi tadbirlar rejasiga binoan O‘zbekistonda

1999-yil noyabda «Alpomish» dostonining 1000-yilligi keng nishonlandi. Soʻnggi tantanalar 1999-yil 6 noyabda Termiz shaharda boʻlib oʻtdi. Shu munosabat bilan bu yerda xalqaro ilmiy konferensiya oʻtkazildi, Alpomish nomidagi bogʻ barpo etildi va xalq qahramoniga haykal ochildi. «Alpomish»ning atoqli xalq baxshilari kuylagan variantlari qayta nashr etildi. Doston haqida hujjatli va badiiy film, uning motivlari asosida teatr spektakllari yaratilgan. «Alpomish» dostoni badiiy barkamol asar. Unda oʻzbek xalqi sheʼriy dahosining buyuk qudrati toʻlaligicha namoyon boʻlgan. «Alpomish»ning slovak tilida nasriy bayoni, rus tilida badiiy tarjimai nashr etilgan. Undan parchalar ingliz tilida eʼlon qilingan. Doston turk tiliga tarjima qilindi.

Oʻzbek xalq dostonlarining tarixiy-madaniy ahamiyati tengsizdir. U xalqimizning oʻziga hos badiiy tarixidir. Unda xalqimizning asrlar boʻyi qilgan orzu-umidlari, porloq kelajak haqidagi oʻy-fikrlari mujassamlashgan.

Demak, doston va dostonchilikdan maqsad mehnatkash ommaning kayfiyati va ruhiyatini kuylash, shu ruh va kayfiyatga mos idealdagi «burungilar» sabogʻi orqali baxshi bilan yuzmayuz turgan tinglovchilar doirasining «koʻnglini botir qilish», ularni yanada ezgulik va olijanoblikka yoʻllashdir. Xalq dostonlari milliy iftixor va oʻz-oʻzini anglash, vatanparvarlik va doʻstlik va

birodarlik tuyg'ularini tarbiyalashda muhim g'oyaviy-estetik vazifa o'taydi.



Xullas, «Alpomish» dostoni xalq qahramonlik eposining yorqin namunasi bo'lib, o'zida o'zbek xalqining avvallari turkiy qavmlar qatorida shakllanganini, keyinchalik alohida xalq sifatida rivoj topganini ifodalashi bilan qimmatlidir. Hech ikkilanmay aytish mumkinki, dostonda o'zbekning tarixi haqiqiy ma'noda o'zining badiiy aksini topgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirzayev T. „Alpomish“ dostonining o'zbek variantlari, Toshkent: 1968.
2. Мадиримова, С. М. Алпомиш – ўзбек халқ қаҳрамонлик эпоси. Тошкент: Фан.-2018.
3. O'zbekiston tarixi. Mualliflar guruhi.-[Toshkent](#): Fan.-2005.-59-bet

4. Jabborov, I. O'zbek xalq etnografiyasi. Toshkent: Fan.-
2001.-18 b.

5. <https://audiobook.uz/blogs/news/alpomish-dostoni-o-zbek-xalqining-madaniy-merosidir>

6. <https://audiobook.uz/blogs/news/alpomish-dostoni-o-zbek-xalqining-madaniy-merosidir>

7. <https://audiobook.uz/blogs/news/alpomish-dostoni-o-zbek-xalqining-madaniy-merosidir>

8. <https://www.savol-javob.com/alpomish-mavzusida-insho/>

9. <https://ilmlar.uz/alpomish-mavzusida-insho/>

10. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/alpomish-ozbek-xalq-qahramonlik-dostoni.html>

Tuzuvchi: R.Komilova